

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13765445>

TIJORAT BANKLARIDA KASSA ISHINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Karimov A.A¹, Rajabov O².

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti¹,

"IPOTEKA BANK" ATIB Qashqadaryo viloyat bo'limi direktori².

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir tushunchalar, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar bo'yicha atroflicha yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** kassa ishi, naqd pul, inkassatsiya, tijorat banklar, aylanma kassa, valyuta qimmatliklari, kassa operatsiyalari, inkassa xonasi.*

Kirish. Hozirgi vaqtda O'zbekistondagi tijorat banklarida naqd pullar, qimmatliklar bilan bog'liq kassa operatsiyalarni bajarishda, qabul qilingan yoriqnomalar asosida tashkil etilgan. Barcha tijoriy banklar ushbu yo'riqnomada belgilangan bandlar bo'yicha bank operatsiyalarini bajaradilar. Bank muassasasida naqd ko'rinishdagi pullar(valyutalar) va boshqa qimmatliklar bilan kassa amaliyotlarini bajarish, bankning kassasidagi naqd ko'rinishdagi valyuta va kupyura va boshqa qimmatliklarni talab darajasida saqlash va ularni tashish, bank kassa tarmoqlarini hamda bankning ma'muriy binosi va bino hududidan tashqarida kassalar uchun bino-inshootlar qurish va ularni jihozlash, shuningdek qo'riqlash ishlari vazifalarini qonunchilik hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan ravishda tashkil etilishi kerak.

Asosiy qism. Bosh bank ishchi-xodimlari nazorat-tekshirish paytida bank filiallarida aniqlab topilgan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha amaliy ko'mak ko'rsatishlari zarur. Ushbu ishlarni bajarishda 2018-yil 29-iyunda ro'yxatdan o'tgan

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori, “Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” yo‘riqnoma asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yo‘riqnoma kassa ishi, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir atamalar va tushunchalar yoritib berilgan. Jumladan: bank bir ish kuni paytida kassa hujjatlari bo‘yicha naqd ko‘rinishdagi kupyura va boshqa turli xildagi qimmatliklarni qabul qilish, pullarni sanash va saralash, o‘ralgan holatda bog‘lash ishlarini olib borish hamda ularni boshqa qimmatliklardan ayri holatda saqlash va ularni chiqim bo‘yicha bank kassa tarmoqlarida tashkillashtirilgan kirim kassalari va chiqim kassalari aylanma kassa deb ataladi.

Bank plastik kartasi mijoziga o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish omilida naqd ko‘rinishdagi kupyuradagi va bajarilgan boshqa jarayonlar bo‘yicha sliplarni olish, shuningdek bankning plastik kartasi orqali asosiy va qo‘shimcha jarayonlarni amalga oshirish, jumladan mablag‘ hisoblarini kiritish va hisobdan chiqarib olish, bank plastik kartasining holati va bankdagi hisob varaq qoldig‘i holatli bo‘yicha ma’lumot olish va parollarni almashtirish imkonini beruvchi elektron-mexanik moslamaga bankomat deyiladi.

valyuta qimmatliklari — naqd ko‘rinishdagi chet el valyutalari, chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar, chet el valyutasidagi to‘langanligi bo‘yicha hujjatlari tushuniladi. Shuningdek sof quyma oltin ham kiradi.

inkassatsiya punktlari — bozor va savdo-sotiq majmualari mintaqasida ish olib borayotgan xo‘jalik subyektlari tomonidan inkassatsiya sumkalariga yoki maxsus qoplarga solingan naqd ko‘rinishdagi pul tushum qiymatlarini inkassatsiya qilish xizmati ishchi-xodimiga topshiriladigan maxsus joy yoki mintaq;

inkassatsiya xizmatlari — xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shu bilan birgalikda banklar, banklarning filiallari hamda uningbo‘linmalariga tegishli bo‘lgan naqd ko‘rinishdagi valyuta va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilish ishlari, pullarni tashishda ekspeditsiya xizmatlari;

pullarni qayta sanash kassasi — bank ish kunlari paytida inkassatorlarning guruhlari tomonidan to‘plab kelingan hamda kechki kassaning xodimlaridan qabul qilingan inkassatsiya qoplaridagi, shu bilan birgalikda qayta sanash maqsadida kassa mudiri tomonidan topshirilgan naqd ko‘rinishdagi kupyuralar va boshqa qimmatliklarni qayta sanash uchun mo‘ljallangan kassadir;

bank kassa operatsiyalari — kassaning me‘yoriy hujjatlari bo‘yicha naqd ko‘rinishdagi kupyura va boshqa qimmatliklarni kirim va chiqim qilishga, qayta sanab olishga, saralash va o‘rab-bog‘lash, almashtirib berish hamda inkassatorlardan qabul qilib olish, shuningdek ularga tashish maqsadida topshirish;

bank kassa tarmog‘i — naqd ko‘rinishdagi kupyura va boshqa qimmatliklar bilan kassa jarayonlarini bajarish hamda ularning talab darajasida saqlanishini ta‘minlash uchun tashkillashtirilgan kirim, chiqim, qayta sanash va kechki kassalar hamda pul omborlari joylashgan mintaqa;

bank kassa hujjatlari — belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi, naqd ko‘rinishdagi kupyura va boshqa qimmatliklarni kirim-chiqim qilish uchun, shuningdek inkassatorlardan qabul qilib olish yoki ularga tashish maqsadida topshirishga asos bo‘lib xizmat qiluvchi me‘yoriy hujjatlar turkumi;

bank kechki kassasi — bank ish kuni yakuniga yetgach, inkassatorlar guruhidan naqd ko‘rinishdagi kupyura va boshqa qimmatliklar solingan yoki bo‘sh inkassatsiya qoplarini qabul qilib olish hamda ish kuni uzaytirilgan kassalarda ish yakuniga yetgach, ulardagi naqd ko‘rinishdagi kupyura va boshqa qimmatliklar qoldig‘ini qabul qilib olish, shuningdek dam olish va bayram kunlari ishlaydigan kassalarga madad pullarini berish uchun tashkil etilgan kassa;

Bank qimmatliklari — barcha qimmatliklar jumladan, qimmatbaho metall va toshlardan tayyorlangan narsalar, saqlash maqsadida topshirilgan qimmatli qog‘ozlar, mulklar va mulk huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar to‘plami, qat‘iy hisobda turuvchi blanklar).bank kassa tarmog‘iga saqlash uchun yoki garov ta‘minoti sifatida topshirilgan va o‘z qiymatiga ega bo‘lgan qimmatliklar.

Bank kirim kassasi — bankda o‘z hisob raqamiga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlardan bankning bir ish kuni mobaynida kirim kassa hujjatlari asosida naqd ko‘rinishdagi kupyura va boshqa qimmatliklarni qabul qiluvchi kassa;

Bank naqd ko‘rinishdagi pullar — O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan barcha nominallardagi kupyura va tangalar shaklida muomalaga jalb qilingan pullar;

Bank pul ombori — bank binosining kassa tarmog‘i joylashgan mintaqada ta’luqli texnik talablar bo‘yicha qurilgan hamda naqd ko‘rinishdagi kupyura va boshqa qimmatliklarni saqlashga ixtisoslashgan ombor;

Bank sayyor kassasi — bankning ixtisoslashgan holda jihozlangan avtomobilida joyiga chiqqan holda, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatilgan to‘lov hujjatlariga asosan, to‘lovlarni naqd ko‘rinishdagi kupyurada yoki bank plastik kartalari orqali qabul qiluvchi kassa;

Slip — bank plastik kartasidan foydalanilgan holda terminalda yoki bankomatda kirim-chiqim jarayonlari bajarilganligini tasdiqlovchi va o‘zida bajarilgan jarayonlarning summa ko‘rinishdagi miqdori, uning turi, sanasi, shuningdek bank plastik kartasi, terminal yoki bankomatni identifikatsiya axborotlarini o‘zida ko‘rsatuvchi terminal yoki bankomat kvitansiya tarzidagi hujjati;

Bank chakana amaliyotlar kassasi — bank ish kuni mobaynida jismoniy shaxslardan kassa hujjatlari asosida naqd ko‘rinishdagi kupyura va boshqa qimmatliklarni qabul qilish yoki chiqim qilish, shuningdek ularning bank plastik kartalari orqali to‘lovlarni qabul qilib olish hamda valyuta ayirboshlash shoxobchasi va chakana kassa xizmatlarining turli shakllarini ko‘rsatish uchun tashkil etilgan kassa;

Bank chiqim kassasi — bankda o‘z hisob raqamiga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga bank bir ish kuni davomida chiqim kassa hujjatlari asosida naqd ko‘rinishdagi kupyura va boshqa qimmatliklarni chiqim qilishga mo‘ljallangan kassa.

Bank inkassa xonasi — naqd ko‘rinishdagi kupyura tushumlari ega va belgilangan tartibda plomba qilingan qopni bevosita mijozdan qabul qilib olish uchun mo‘ljallangan xona hisoblanadi.

Bosh bank tomonidan bir yilda kamida bir marotaba o‘zi tasarruf etgan bank filiallarida kassa ishlarini tashkil etilishi va kassa jarayonlarini bajarishda yo‘riqnoma talablariga rioya etilishi tekshirilishi lozim.

Bosh bank xodimlari tekshirish natijasida bank filialida aniqlangan kamchiliklarni ushbu yo‘riqnoma talablariga asosan bartaraf etish yuzasidan amaliy ko‘mak ko‘rsatishlari lozim.

Bank kassirlari o‘rab-bog‘lab tayyorlangan naqd ko‘rinishdagi kupyura va boshqa qimmatliklarning bog‘lamlari (dastalari) bank kassir xodimlari yoki mijozlar tomonidan (kassa xodimlari va vediokuzatuvchi ostida) qayta sanab ko‘rilganda kamomad (to‘lovga yaroqsiz, qalbaki pullar va qimmatliklar) topilsa, aniqlangan kamomad miqdori uchun ushbu bog‘lamni (dastani) shakllantirgan kassir qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda moddiy javobgar bo‘ladi. Bankning rahbari, bosh buxgalteri va kassa mudiri kassa ishini to‘g‘ri tashkil etish, naqd ko‘rinishdagi kupyuralar va boshqa qimmatliklar but saqlanishini ta‘minlash hamda mijozlarga ushbu Yo‘riqnoma talablari asosida kassa xizmatlari ko‘rsatilishi uchun mas‘uldir. Bank binosida va bank binosidan tashqarida tashkil etilgan chakana amaliyotlar kassalarida kassa jarayonlari bilan birgalikda valyuta ayirboshlash jarayonlari ham amalga oshirilgan holatda, ulardagi naqd ko‘rinishdagi kupyura va qimmatliklar hisobi bankning hisob siyosati bo‘yicha olib boriladi.

Shuni e‘tiborga olish kerakki, haqiqatda bajarilmagan kassa jarayonlari bo‘yicha kassa hujjatlarini rasmiylashtirib qo‘yishga, xususan mijozlar tomonidan bank kassasiga naqd ko‘rinishdagi pullarni topshirmasdan va chiqim kassasidan naqd ko‘rinishdagi pullarni olmasdan, kirim va chiqim kassa hujjatlarini bir vaqtda rasmiylashtirish taqiqlanishi yuriqnomada ko‘rsatib o‘tilgan. Ish tajribasi kam bo‘lgan, bilimi, malaka va ko‘nikmalari yetarli darajada bo‘lmagan ishchi-xodimlarni naqd

ko‘rinishdagi kupyura va boshqa qimmatliklar bilan kassa jarayonlarini mustaqil tarzda bajarishlari taqiqlanishi belgilab o‘tilgan.

Xulosa. “Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” yo‘riqnoma jami 19 bob va 354 banddan iboratdir. Ushbu boblarning barchasida tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir ma’lumotlar yo‘riqnomalar tarzda ifoda etilgan. 3-yanvar 2024 yilda ro‘yxatdan o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining “Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir yo‘riqnomaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” qarorida bir qancha o‘zgartirishlar kiritildi. Ushbu kiritilgan o‘zgartirishlar hozirgi paytdagi bir qancha muammolarni yechim topishiga zamin yaratdi. Jumladan eskirgan va yangi kupyuralar, tegishli idoralarga ma’lumotlarni taqdim etish asoslari, blankalar, pensiya jamg‘armalari bo‘yicha tegishligicha o‘zgartirish va qo‘shimchalar belgilab olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2018-yil 29-iyun “Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori.
2. 2024-yil 3-yanvar “Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir yo‘riqnomaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi markaziy banki boshqaruvining qarori
3. Abdullaeva Sh.Z. «Pul, kredit va banklar» Toshkent 2000 yil
4. Karimov, A. (2023). THEORETICAL JUSTIFICATION OF THE PARAMETERS OF AN IMPROVED POTATO DIGGER. Innovatsion Texnologiyalar, 51 (03), 135–141.

5. Karimov, A. (2023). PARAMETERS JUSTIFICATION OF THE IMPROVED POTATO DIGGER. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(18), 256-263.
6. Karimov, A. A. (2024). Organizing Management in the Transport Logistics System. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture*, 2(6), 66-68.
7. Akbarovich, K. A., & Uroqovich, X. H. (2024). The Importance of Goods and Material Flows and Warehouses in the Development of Logistics. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, 2(6), 564-568.
8. Mamatov, F. M., & Karimov, A. A. (2023, April). Potato digger with latticed plowshares and oscillating rods. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 401, p. 04029).